FARG'ONA VILOYATI RISHTON TUMANI HOKIMINING QARORI

2021 - yil 17 - dekabr 200-11-158-Q/21 Rishton tumani hokimligi

Rishton tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko`rsatish bo`yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to`g`risida

O`zbekiston Respublikasining "Dafn etish va dafn ishi to`g`risida"gi Qonuni, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Dafn etish va dafn ishi to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 2011-yil 4-apreldagi 101-son qarori hamda O`zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida"gi Qonunining 6-moddasiga asosan Rishton tumani xududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko`rsatish bo`yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimi o`rinbosarlari: fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

sanitariya qoidalari va meyorlariga qat`iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta`minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to`g`risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirsin.

3. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi hamda qabristonlarning ma`muriyati:

xizmatlar uchun qat`iyan belgilangan tariflar bo`yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko`rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o`z vaqtida va sifatli bajarilishini;

qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo`lgan inshootlarni o`rnatish, obyektlarni saqlash va ulardan

foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta`minlasin.

4. Ushbu qaror “Rishton haqiqati” gazetasida rasman e`lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e`lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o`rinbosari (A.Mustafaqulov) zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **С.Солиев**